

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT SOXASIGA OID

TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

**Azimova Dildora Maxmudjonovna,
NamMTI, PhD talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya hisobi va audit terminlarining vujudga kelishi va terminlar xaqidagi ta’limot, shuningdek, o‘rganilayotgan so‘zlarni o‘zgarishi va leksikografik tadqiqi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: terminlar, buxgalteriya, hisob, audit, tarjima, olinma so‘zlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается возникновение терминов бухгалтерского учета и аудита в английском и узбекском языках и доктрина этих терминов, а также изменение и лексикографическое исследование изучаемых слов.

Ключевые слова: термины, бухгалтерский учет, учет, аудит, перевод, лексика.

Abstract: This article discusses the emergence of accounting and auditing terms in English and Uzbek languages and the doctrine of terms, as well as changes and lexicographic research of the words being studied.

Key words: terms, accounting, accounting, audit, translation, vocabulary. Leksikografiya – (grek.lexicon-lug’at va grapho-yozaman)- lug’at tuzishga qaratilgan soha bo‘lib amaliy hamda nazariy tamoyillarga asoslanadi. So‘zlar aynan bir yo‘nalishga qaratilib, tartibga solingan jamlanmasi lug’at deyiladi. Lug’at tuzishning ilmiy xususiyatlari va asoslarini o‘rganib chiqish lug’at turlarini aniqlash uni yaratish tartibini asoslab berish bu sohaning nazariy jihatni hisoblanadi. Ma’lum bir tilga oid so‘zlarni jamlash lug’at tuzish maqsadida kartotekalar tuzish va ularni tartibga solish lug’atshunoslikning amaliy masalasidir.

Termin grekcha terminus so‘zidan olingan bo‘lib chek, chegara degan manoni

bildiradi. Terminalogiya terminlar xaqidagi ta’limot va terminlar majmuasi hisoblanadi. Terminalogiya sohasiga oid tadqiqotlarni tahlil qilish natijalari yangi terminlarning hosil bo‘lishiga xizmat qiladigan derivatsiya jarayonlari tabiiy natijasi bo‘lib, shu tariqa terminosferaning shakllanishi va terminosistemaning boyishiga ta’sir o‘tkazadi.

O‘zlashtirish jarayoni funktsiyasi bo‘yicha ko‘pincha derivatsiya jarayonlari bilan bir xilda bo‘ladi. Bu esa terminlarning turli-tumanligi, tuzilish hamda semantikasiga ko‘ra farqlanadigan turlarining spetsifikasini asoslaydi. O‘zlashtirish va termin yasash jarayonlari bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi va audit sohasida mujassamlashgan jarayonlar atama, terminlar orqali ifoda qilinadi. Terminlar yordamida hisob munosabatlarni tashkil qiluvchi xuquq va vazifalar keltirilib o‘tiladi. Hisob faoliyati davomida uning o‘ziga xos terminlari bilan bir qatorda boshqa fan, moliya va iqtisodiyot sohalariga aloqador terminlarga ham duch kelinadi. Bu kabi terminlarni bilish buhgalteriya ishi jarayoning kaliti hisoblanadi.

S.V. Shvetsova⁴⁰ tadqiqotida ingliz tili terminlarini yasalish usullari va qo‘llanilish chastotasi nuqtai nazaridan tahlil qilib, eng ko‘p tarqalgan metodi suffikslar yordamida bo‘lgan termin yasalishining morfologik usuli faol ekanligini aytib o‘tgan.

Ingliz tili buxgalteriya hisobi va audit terminologiyasi o‘z va o‘zlashgan qatlam doirasidagi o‘zaklarga asoslanadi. Masalan, I.Yu. Bulgakova⁴¹ “kontrakt” va “agreement” terminlari misolida ingliz va boshqa roman-german tillariga o‘zlashma so‘zlarning kirib kelish jarayonini tavsiflaydi. “Kontrakt termini o‘zining to‘g’ri ma’nosiga ko‘ra kelishuvchi tomonlarning ikki tomonlama majburiyatlari aks etgan shartnoma, bitim sanaladi”, – deb yozadi muallif. U XIV asrda majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlash yoki ularni noto‘g’ri talqin qilishning oldini olish uchun shartlarni yozma shaklda aks ettirish zarurati tufayli

⁴⁰ Shvetsova S.V. Lingvisticheskiy analiz sposobov terminoobrazovaniya v sovremennoy oftalmologicheskoy terminosisteme. Avtoref. diss... kand. fil. nauk. – Irkutsk, 2005. – S. 14.

⁴¹ Bulgakova I.Yu. Formirovanie terminologii angliyskogo dokumentovedeniya v donauchnyu epoxu // Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta Vipusk №1 (9), 2010. – S. 21–24.

paydo bo‘lgan bo‘lib, Qadimgi Rim davridan to hozirgi kungacha dunyo amaliyotida tobora keng tarqalgan hodisadir. “Kontrakt” so‘zi contractus, contrahere – birlashtirish, rozi bo‘lmoq, kim bilandir shartnoma tuzmoq fe’llari, con – bilan, birga prefiksi va trahere – olmoq, cho‘zmoq (uzaytirmoq), qiziqtirmoq fe’li asosida hosil bo‘lgan, keyinchalik bir guruh terminlarning yasalishi uchun yadro vazifasini o‘tagan. O‘rtalarda lotin tili ruhoniylar, shifokorlar, olimlar, yuristlar uchun funktional til vazifasini bajarganini hisobga olsak, ingliz va Yevropa tillari uchun lotincha o‘zlashmalarining ko‘pligi tabiiy hol, xuddi mazkur misol uchun talaffuz va yozuvning deyarli o‘zgarmagani, “kontrakt” termini baynalmilal bo‘lgani kabi: kontrakt – o‘zbek va rus tillarida, kontrakt – nemis tilida, contract – ingliz tilida, contratto – italyan tilida. “Agreement” termini “tomonlarning nimanidir bajarish haqidagi kelishuvi, va’dasi” ma’nosini anglatib, lotincha ad + gre (xohish-iroda, istak, rohatlanish) lotincha gratus (yoqimli)dan gratum asosida agreeer, agree (xohishiga ko‘ra) XV asrda frantsuz tili orqali paydo bo‘lgan shuningdek contract terminiga sinonimdir. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, agreement terminidan farqli o‘laroq, bugunga qadar sontract terminni asosida qurilgan moliya-iqtisod sohasida faol qo‘llanilayotgan qator terminologik birikmalar shakllangan. Masalan; contract awarded – tuzilgan shartnoma; contract bond – shartnoma kafolati; contract buyer – shartnoma xaridori; contract by deed – muhr bilan tasdiqlangan bitim; contract by deed – muhr bilan tasdiqlangan bitim; contract debt – shartnomaviy qarz; contract default – shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik; contract for delivery – yetkazib berish shartnomasi;

Frantsuzcha o‘zlashmalar ingliz tiliga normand dialekt va frantsuz milliy adabiy tilidan XV asrdan boshlab kirib kelgani uchun ingliz tili g’aznachilik terminologiyasidagi o‘zlashmalarining eng ko‘pi lotin va frantsuz tillaridan o‘tgan. Masalan, buhgalteriya sohasida qo‘llanadigan terminlarining katta qismi lotin, ingliz, frantsuz tillariga oid yoki frantsuz tili orqali o‘zlashgan lotincha so‘zlardir: limit (limit), default (defolt), tranche (transh), capital (kapital), budget (byudjet), tax (soliq), commerce (kommertsiya, tijorat), deficit (defitsit, kamomad), arbitrage (arbitraj) finance (moliya), deposit (depozit), bureaude change (ayirboshlash

shahobchasi), bordereau (ro‘yxat), bordero (batafsil ro‘yxat, ayniqsa hujjatlar yoki qimmatbaho qog’ozlar ro‘yxati).

Lotin va grek tillaridan ingliz tiliga: audit (audit), analysis (analiz, tahlil), auction (auktsion) coalition (koalitsiya), segregation (mijoz operatsiyalari bo‘yicha bo‘linish), commision (kommisiya), capital (kapital), deposit (depozit), deficit (kamomad), deflation (deflyatsiya), dividend (divident) debit (debit), economy (ekonomika, iqtisod), emission (emissiya), export (eksport) so‘zlari kirib kelgan.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shvetsova S.V. Lingvisticheskiy analiz sposobov terminoobrazovaniya v sovremennoy oftalmologicheskoy terminosisteme. Avtoref. diss... kand. fil. nauk. – Irkutsk, 2005. – S. 14.
2. Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN "BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.
3. Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.
4. Azimova, D. M., va Laptev, I. A. (2017). SEMANTICHESKOE SOOTNOSHENIE SUSHESTVITELNOGO I PRILAGATELNOGO. Teoriya i praktika sovremennoy nauki, (5), 1140-1141.
5. Azimova, D. M. (2017). Modeli sootnositelnyh ryadov leksemoy prilagatel'nogo v kachestve postoyannogo chlena. Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire, (4-2), 38-40.
6. Azimova, D. (2017). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Teoriya i amaliyat sovremennoy nauki, (4), 3-5.
7. Azimova, D. M., & Mamadalieva, N. A. (2017). Dvoystvennaya priroda angliyskogo glagola. Teoriya i amaliyat sovremennoy nauki, (5), 1142-1145.